

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA IJODIY KO'NIKMALARNI
SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI**

Xo'jabekova Madina Xayrulla qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18154262>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. O'qituvchining ijodiy salohiyati ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida ko'rib chiqilib, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yo'nalishlar yoritib beriladi. Tadqiqotda muammoli ta'lim, interfaol metodlar, loyiha faoliyati hamda pedagogik refleksiyaning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy ko'nikma, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, metodika, kreativ yondashuv, ta'lim sifati.

Kirish

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot asrining ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida pedagog shaxsining kasbiy va ijodiy salohiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida faoliyat yurituvchi o'qituvchining ijodiy ko'nikmalari ta'lim mazmunining samarali o'zlashtirilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayoni o'qituvchidan nafaqat metodik bilimlarni, balki moslashuvchanlik, yangicha fikrlash va kreativ qaror qabul qilish qobiliyatini ham talab etadi.

An'anaviy o'qitish shakllarining ustunligi sharoitida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy faolligi yetarli darajada rivojlanmayotgani kuzatilmoqda. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish masalasi hozirgi pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur tezisning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan samarali metodik yondashuvlarni aniqlash va ularning ta'lim jarayonidagi pedagogik ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

Asosiy qism

Pedagogik adabiyotlarda ijodiy ko'nikma o'qituvchining yangicha fikrlashga asoslangan faoliyati, pedagogik vaziyatlarga noan'anaviy yondashuvi hamda ta'lim jarayonini innovatsion asosda tashkil eta olish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Amerikalik olim Guilford ijodiy ko'nikmani insonning yangicha fikrlash qobiliyati, masalalarni noodatiy yechim bilan hal qilish qobiliyati sifatida ta'riflab, ta'lim jarayonida o'quvchining individual kreativ salohiyatini aniqlash va rivojlantirishga asos bo'lishini aytib o'tadi.

Yana bir olim Torranse esa ijodiy ko'nikmalarni ta'lim jarayonida faollashtirish va ularni o'quvchilarda shakllantirish metodlarini o'rganadi va o'qituvchining ijodiy yondashuvi o'quvchilarning qiziqish va ishtiyoqini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatida ijodiy ko'nikmalar o'quvchilarning yosh xususiyatlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda darslarni samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish quyidagi metodik yondashuvlar orqali amalga oshiriladi:

Muammoli ta'lim asosidagi yondashuv;

Muammoli ta'lim bu mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, izlanish, umumlashtirish, muammoli vaziyatlar, yechim topish, bilishga qiziqish, intilish asosidagi ta'lim tizimidir. O'qituvchidan dars davomida o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiruvchi vaziyatlar yaratishni talab etadi. Bu jarayon pedagogning o'zi uchun ham ijodkorona izlanishga undovchi omil sifatida xizmat qiladi.

Interfaol metodlardan foydalanish;

Interfaol metodlar – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi turadigan metodlar hisoblanadi. Bu metodlar yordamida o'qituvchi o'quvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. O'quvchilar butun ta'lim jarayonida ishtirok etadi. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik kuchayadi. Guruhlarda ishlash, bahs-munozara, rolli o'yinlar o'qituvchining kreativ yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Loyiha ishi metodlaridan foydalanish;

“Loyihalash asosida o'qitish ta'lim-tarbiyaning ma'lum bir vazifalarini hal qiladi: loyiha asosida o'qitiladigan har bir ishtirokchida shaxsiy ishonchning o'sishiga yordam berish, uni o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi va refleksiyasiga yordam berish. Ko'rsatilganlar “yutuq vaziyati”ni darsda (yoki darsdan tashqari) so'zda emas, amalda his qilish orqali o'quvchi o'zining kerakligi, omadli ekanligini va turli muammoli vaziyatlarni bartaraf qila olish qobiliyatiga ega ekanligini bilishga olib keladi”[1]

Loyiha ishlari boshlang'ich sinf o'qituvchisidan fanlararo integratsiyani amalga oshirish, dars mazmunini ijodiy rejalashtirish va yangi pedagogik yechimlarni qo'llashni talab qiladi. Bu esa o'qituvchining metodik mahoratini yanada yuksaltiradi.

Pedagogik refleksiya;

A.V.Xristeva refleksiv vaziyatlar kasbiy faoliyatda ijodiy tizimlar hosil qiluvchi komponent sifatida qaraydi. U bo'lajak o'qituvchining refleksiv tizimini shakllantirish va rivojlantirish pedagogik faoliyatda o'z imkoniyatlarining zarur ijodiy qismi deb biladi va refleksiv tizimsiz o'qituvchining yuksak mahoratli pedagog bo'lishi mumkin emas deb ta'kidlaydi. Pedagogik refleksiya jarayonida o'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi, pedagogik xatolarini aniqlaydi va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilaydi. Reflektiv yondashuv ijodiy ko'nikmalarni doimiy rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqamli ta'lim resurslari va multimediali vositalar dars jarayonini zamon talablariga mos holda tashkil etishga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodiy ko'nikmalarga ega bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars jarayonida o'quvchilarning faolligini oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirishga qulay sharoit yaratadi hamda ijobiy pedagogik muhitni ta'minlaydi. Metodik yondashuvlarning tizimli qo'llanilishi o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Ushbu jarayon muammoli va interfaol metodlar, loyiha faoliyati hamda reflektiv yondashuv asosida tashkil etilganda kutilgan natijalarga erishish mumkin. Mazkur metodik yondashuvlar zamonaviy, ijodkor va raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. “Mahoratli pedagog — pedagogik faoliyatni ijodiy tashkil etadigan, o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda dars jarayonini samarali loyihalovchi va olib boruvchi o'qituvchidir”. [2]

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. LOYIHA METODI ASOSIDA O`QITISHNING ASOSIY ANIQ MAQSADI VA SAMARADORLIGI. Navro'zov Ikrom Nurullayevich. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2021 йил №6) ISSN 2181-1709 (P)
2. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR YA PEDAGOGIK MAHORAT. H.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov
3. Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2009